

RAMZ TUSHUNCHASINING NAZARIY MASALALARI VA UNING TASNIFI

Ismatova Mohigul Tuyevna

Buxoro davlat universiteti

mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14794192>

Sharq adabiyoti, xususan, o'zbek adabiyotining tarixiy taraqqiyotini kuzatsak, unda ramziylik badiiy asarning badiiyatni ta'minlovchi muhim omil bo'lishi bilan birga, asar stukturasida mazmun va g'oyani bog'lab turuvchi element sifatida ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari, ramzlar butun millat va xalq turmush tarzining ajralmas qismi sifatida xalqning tarixiy, madaniy, ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bog'liq. Har bir xalqning an'analari, qadriyatlari va urf-odatlarini ramzlar orqali ifodalanadi va ular avlod-avlodga o'tib boradi. Shu bois, ramz va u bilan bog'liq qarashlar turli fanlar doirasida muhokama qilinadi.

Simvol – ramz yunon tilidan olingan bo'lib, (ya'ni symbolon, belgi, aniqlovchi belgi) g'oya, yoki ob'ektning obrazli belgisi, demakdir.¹

Ramz (arab – ishora qilmoq) (badiiy adabiyotda) – voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli; badiiy shartlilik shakllaridan. Ramz majozdan farq qilib, mazmuni obrazli qurilishi bilan bog'liq bo'ladi va ko'p ma'noliligi bilan ajralib turadi. Ramz barcha xalqlar folklori va adabiyotida qadimdan mavjud. Ramziy obrazlar muayyan tizimni tashkil etadi va ayrim hollarda ko'pchilik xalqlar adabiyoti va san'atida mushtarak mazmunni ifodalaydi.²

Ramz tushunchasiga berilgan aniq va ixcham ta'rifni "O'zbek tilining izohli lug'atida ham ko'rishimiz mumkin. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ramzga quyidagicha ta'rif beriladi: "Ramz – biror g'oya, tushuncha, hodisa kabilarni ifodalovchi, eslatuvchi shartli belgi, ishora".³

D. Qur'onov Z.Mamajonov va M.Sheralievlar tomonidan tayyorlangan "Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati"da ramzga quydagicha ta'rif berilgan. "Ramz – (ar. رمز imo, ishora, imlash) – simvol; ko'chim turlaridan biri, faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko'chma ma'no kasb etuvchi so'z yoki so'z birikmasi; obrazlilik turi. Ramz kontekst doirasida ham o'z ma'nosida, ham ko'chma ma'noda qo'llaniladi. Ramzning ma'nosi kontekst doirasida va shartdan xabardorlik bo'lganda reallashadi".⁴

Ramzlarga doir nazariy fikrlar turli yo'nalish doirasi bildirilgan. Jumladan, "Falsafa" qisqacha izohli lug'atida ramz terminiga "Simvol – yunon "simbolon" – ramz, shartli belgi, tamg'a yoki nishon" degan ma'noni anglatishi ta'kidlangan.

"Filosofskiy ensiklopedicheskiy slovar"da ramzning tor va keng ma'nolari mavjud ekanligi ta'kidlangan va mazkur terminga quyidagicha ta'rif berilgan.

1. Tor ma'noda, bu termin tabiiy, falsafiy fanlarda, shuningdek, insonning amaliy hayotida amal qiluvchi maxsus belgilarni anglatadi. Masalan, "x" (iks) yoki "y" (igrek), yol qoidalaridagi barcha belgilar, davlat gerblari va hokazo.

¹ https://dic.academic.ru/dic.nsf/enc_philosophy/1095/%D0%A1%D0%98%D0%9C%D0%92%D0%9E%D0%9B

² Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Биринчи жилд. Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. 346-б.

³ Ўзбек тилининг изохли луғати 3-том. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. 347-б

⁴ Куронов, З.Мамажонов ва М.Шералиева. Адабиётшунослик терминлари луғати.- Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б. 244-245.

2. Keng ma'noda "ramz termini" san'atning barcha turlaridagi obraz tushunchasini butun murakkab jihatlar bilan o'zida qamrab oladi⁵.

Tasavvuf falsafasida ham ramzlar alohida o'ringa ega. Tasavvuf ramz va tamsillarga asoslangan ta'limot. Shu bois, tasavvufda ko'pincha ilohiy-irfoniy, axloqiy-didaktik, ijtimoiy-siyosiy fikrlar ramz-u majoz orqali badiiy talqin qilingan. Mutasavvuf shoirlar ijodida badiiy talqin qilingan ishq, may, mayxona, xarobot, soqiy, sog'ar, qadah, xum, gul, mahbub kabilar ramziy ma'no tashuvchi so'zlardir. Bu esa o'zbek mumtoz she'riyatning "sirli"ligidan darak beradi.

O'zbek folklorshunosligida folklor janrlarida, ayniqsa, xalq qo'shiqlarida ramzlarning badiiy funksiyasi qator olimlar tomonidan tadqiq qilingan.⁶

O'zbek adabiyotshunosligida ham borada ijobiy natijalarga erishildi.⁷ Ayniqsa, ramzlar maxsus tadqiq ob'ekti sifatida O. Sharopovning "Olamlar icha olam" tadqiqotida o'rganilgan. Olim ramzlarni "simvol belgi va simvol obraz"ga ajratadi va ularni misollar asosida farqlab ko'rsatadi. Olim "Simvol – belgidagi mohiyat va ifoda o'rtasida ichki bog'lashining bo'lmasligini matematik, fizik, ximik simvollarda uchratishimiz mumkin" ta'kidlaydi.⁸

Ramzlarga doir nazariy qarashlarni qiyosiy tahlil qilib, shunday xulosaga kelish mumkinki, turli fanlar doirasida qo'llanuvchi ramzlar til (nutq)da badiiy matnlardaga ramzlarga qaraganda ancha aniqroq bo'ladi. Kundalik nutqda qo'llaniladigan so'zlar ilmiy ramzlarga qaraganda kengroq ma'noga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Boshqacha qilib aytganda, kimyoda yoki fizikada oid formulalar yoki matematikada qo'llanuvchi ayiruv (–), qo'shuv (+), tenglik (=) kabi ramzlar aniq ma'noga ega bo'lib, millati yoki madaniyatdan qat'i nazar, undan yagona ma'no kelib chiqadi. Bundan tashqari, biz ramzlarni faqat so'zlar bilan cheklay olmaymiz. Ba'zan rasmlar, belgilar ham ramz namunasi bo'lishi mumkin.

⁵ Философский энциклопедический словарь. - Москва, 1983. - С 607-608 .

⁶ Мусакулов А. Ўзбек халқ лирикасининг тарихий асослари: ф.ф.д. дисс. автореф. – Т., 1995; Шу муаллиф. Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: "Фан", 2010. – 306 б.; Шаропов А. Оламлар ичра оламлар. – Т.: "Адабиёт ва санъат", 1978; Ёқуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. – Т.: "Фан", 2005; Турдимов Ш. Поэтические символы в узбекских народных лирических песнях. АКД. – Т., 1987; Шу муаллиф: Халқ кўшиқларида рамз. – Т.: "Фан", 2020. – 192 б.; Ўраева Д. Ўзбек халқ лирик кўшиқларида параллелизм ларнинг характери ва бадий-композицион вазифалари: ф.ф.н. дисс. автореф. – Т., 1993. – 20 б.; Шу муаллиф. Ўзбек мотам маросими фольклорининг генезиси, жанрий таркиби ва бадийи: ф.ф.д. дисс. автореф. – Т., 2005. – 35 б.; Рўзиева М. Ўзбек халқ кўшиқларида ранг символикаси: Филол.фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореф. – Т., 2017. – 46 б.; Имомназарова Ш. Ўзбек фольклорида ўлан жанри (ўзига хос хусусиятлари, генезиси ва бадийи): Филол.фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореф. – Т., 2017.

⁷ Мамадалиев З.У. Алишер Навоийнинг «Лисон-ут тайр» достонидаги рамзий образлар тизими: Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 2011; Рўзиева М. Ўзбек халқ кўшиқларида ранг символикаси. Филол.фан.б.фалс.док...дисс. – Тошкент, 2017; Қўчқорова С. Ўзбек ва француз эртакларида маданий рамзларнинг коммуникатив-прагматик роли: Филол.фан.б.фалс.док...дисс.автореф. – Самарқанд, 2022; Шаропов А. Оламлар ичра оламлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978; Турдимов Ш. Халқ кўшиқларида рамз. – Тошкент: Фан, 2020/ Жуматова Н. Ҳозирги ўзбек шеъриятида ранг билан боғлиқ рамзий образлар:Филол. номз...дисс.автореф. – Тошкент, 2000; Ўтанова С. Алишер Навоий ғазалиётида ранг символикаси. –Тошкент: Тафаккур, 2011.

⁸ Шаропов Аскарвали. Оламлар ичра олам. – Т.; Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти/120-б.

Demak, ramz idrok yetish imkoni bo'lmagan har qanday narsani ko'z oldimizga keltiruvchi belgi. Ramz - bu o'zidan boshqa voqelikka e'tibor qaratadigan, nimanidir ifodalovchi yoki uni tasvirlaydigan narsa yoki odamlar tomonidan bajariladigan harakatdir.

Simvolizm bu – fikrlarni, his-tuyg'ularni va g'oyalarni ifodalash uchun ramzlardan foydalanishdir. Simvollar, odatda, abstrakt ma'nolarni ifodalaydi va insonlarning ichki dunyosi bilan bog'lanadi. Ularning mafkuraviy va estetik ma'nolari bor.

Simvolizm umuminsoniy qadriyat va odamlarning umumiy tilidir. U bir xil xabarni beradi va turli tillar, madaniyatlar, barcha odamlar uchun bir xil ma'noga ega. Boshqacha aytganda, ramzlar umuminsoniy qadriyatlar, tamoyillar, bilim va g'oyalarni tushuntiruvchi belgilardir. Ramzlar oddiy va aniq belgilardir.

Ramzlar tug'iladi va tarqalib, tan olinadi va umumiylik kasb etadi. Ularning ma'nolari va ahamiyati odamlar orasida umumiy tushunchaga aylanadi. Ramzlarning tan olinishi ularning ijtimoiy va madaniy ahamiyatini belgilaydi.

Ramzlar e'tiqod, madaniyat, shaxs yoki hodisaning belgisidir. Ya'ni ramzlar inson hayotining muhim elementlaridan biri bo'lib, ular e'tiqod, madaniyat, shaxs va hodisalarning belgisi sifatida xizmat qiladi.

Ramzlar ba'zan tirik mavjudot yoki tirik mavjudotning rasmi, chizma yoki haykali ham bo'lishi mumkin. Hatto tanga yoki jismoniy imo-ishoralar ham ramz vazifasini bajarishi mumkin. Ba'zi ramzlarning ma'nosi shaxs, mintaqa va madaniyatga qarab farq qilsa, ba'zilar universaldir. Masalan, *kabutar* dunyoning deyarli mamlakatlarida tinchlik ramzi sanaladi. *Tarozi* – adolati, *tibbiyot ramzi* - tayoq atrofida o'ralgan ikkita iloni. Sevgi yoki tinchlik deganda, ko'z o'ngimizda paydo bo'ladigan ramzlar aniq bo'ladi. Yo'l belgilari va bayroqlar butun dunyoda ma'lum va bir xil ma'noga ega. O'simliklar va hayvonlarning ko'plab ramzlari mavjud. *Boyqush* - omadsizlik, sher - kuch, bo'ri - jasorat, tulki - ayyorlik, echki - o'jarlik timsoli va hokazo.

Ramz ham, timsol ham faqat nutq va matnda foydalanish natijasida hosil bo'ladi va o'z xususiyatini saqlab qoladi. So'z matndan tashqaridagi timsol ham, ramz ham bo'lish xususiyatini yo'qotadi. So'z she'r ichida boshqa so'zning ma'nosini "vaqtincha olishi" mumkin. Lekin so'z she'rdan tashqarida vaqtinchalik ma'nodan voz kechadi. Masalan, "olov" she'rda sevgi ramzi bo'lsa, u she'rdan tashqarida bu xususiyatini yo'qotadi.

Ta'kidlash kerakki, badiiy asarlarda ramzlar asarning strukturasini yaratishda muhim rol o'ynaydi. Ularning ma'nosi asarning umumiy konsepsiyasini shakllantiradi. Ramzlar badiiy asarlarning ajralmas qismi bo'lib, ularni tushunish asarning to'liq ma'nosini anglashga yordam beradi. Shu bois, ramzlarning badiiy matndagi funksiyasini aniqlash, uning ko'rinishni tasniflash muhim sanaladi. Bu borada nemis faylasufi, psixoanalitigi Erix Frommning tasnifi alohida ahamiyatga ega. U o'zining "Inson qalbi" nomli asarida ramz va uning ko'rinishlariga to'xtaladi. Olim ramzlarni *shartli ramz*, *tasodifiy ramz*, *universal ramzlarga* ajratadi. Olim shartli ramzlarga rasmlar va ranglar kiritadi.

Tasodifiy ramzlar insonning ong osti, ularning his-tuyg'ulari, xotiralari va insonning ichki dunyosi, xususan, tush holati bilan bog'liq. Masalan, agar kimdir biror narsadan ta'sirlansa, tushida u bilan bog'liq ramzlarni ko'rishi mumkin. Olimning ta'kidicha, insonning tushida tasodifiy ramzlar tez-tez uchrab tursada, miflarda, ertaklarda yoki ramziy tilda yozilgan badiiy asarlarda ramzning bu turi oz miqdorda qo'llaniladi.

Universal ramzlar inson his-tuyg'ulari, tajribalari va jismoniy holatlari orasidagi aloqaning ifodasidir. E.Fromm mazkur ramzlarning "moddiy olamda sodir bo'layotgan voqea-hodisalar ichki holatimizga mos aks etishi – ruhiy olamning ramzi sifatida xizmat qilishi"ni ta'kidlaydi.

E.Fromm universal ramzlar insonning ichki holatini yuz ifodalari, xatti-harakatlar va imo-ishoralar orqali namoyon bo'lishini ta'kidlab o'tadi. Misol uchun, qo'l bilan ishora qilish, boshni qo'yish yoki ko'zlarni yopish kabi harakatlar muayyan his-tuyg'ularni ifodalaydi.

Ta'kidlash kerakki, adabiyot hayotining in'ikosi bo'lsa-da, bu in'ikosni adabiy turlar va janrlarda ifodalashning o'ziga xos usullari bor. Shu jumladan, adabiy turlar va janrlarda ramzlarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari ko'zga tashlanadi. Bu o'ziga xoslik asarning janri, strukturasi, mavzusi va ijodiy maqsadiga aloqador.

Lirikada ramzlardan his-tuyg'ularni, tabiat manzaralarini va insonning ichki dunyosini ifodalashda foydalaniladi. She'riyatda ramzlar ta'sirli bo'lishi kerak, chunki ular ko'pincha bir necha satrda katta ma'noni ifodalaga xizmat qiladi.

Nasriy asarlarda ramzlar ko'pincha personajlarning psixologik holatlari va ijtimoiy munosabatlari bilan bog'liq bo'lsa, dramada personajlarning harakatlari va dialoglari orqali namoyon bo'ladi. Ramzlar dramada vizual elementlar bilan birlashib, sahnadagi ta'sirni oshiradi. Masalan, ranglar, ob'ektlar va harakatlar ramzli ma'nolarni ifodalaydi. Ramzlarni qo'llashdagi bunday o'ziga xosliklar adabiy asarlarning ko'lamini belgilaydi. Shu jihatlarni inobatga olib ramzlarni adabiy janrlarda namoyon bo'lishi va funksiyasiga ko'ra tasniflash mumkin. "Fikrimizcha, adabiy turda, xususan, epik tur janrlarida ramzlarning badiiy asar shakli va mazmunidagi "yuk"ni mufassal ifodalashda ularni tasniflash maqsadga muvofiqdir"⁹– deydi N. Cho'llieva. Adabiyotshunos olimi "hikoya shakli - kompozitsiyasida ramzlarni personaj ramzlar, detal ramzlar, peyzaj ramzlar, portret ramzlarga ajratish lozim"ligini qayd qilib o'tadi.

Ramz badiiy adabiyotning asosiy quroli. Ramz – bu belgilar, obrazlar orqali ifodalanган ma'no. U badiiy asarlarda keng ma'noda ishlatiladi. Ramzlar insonning ichki dunyosi, uning his-tuyg'ulari va ijodiy fikrlarini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. *"Ramz xayol va hayotning shartli ifodasidir. Adabiyotning ilohiy kuchi, qudrati shu ramzlarning qay tariqa ifoda etilganiga bog'liq... Nasr ham, nazm ham, asli ramz, metafora, voqelikning timsolidir. Voqelikning aynan o'zi go'zalmas, uning timsoli go'zal. Yuqorida aytganimizdek, toshmas, toshga yo'nilgan xayol go'zal. Adabiyotning ilohiy kuchi ana shu xayolni yarata olishda ko'rinadi.... Adabiyotning ilohiy qudrati go'zallik yaratayotganida ko'rinadi"*¹⁰.

Ramz ko'rinishlari adabiy va san'at asarlaridagi simvolik elementlar bo'lib, ularning ma'nolarini, kontekstni va ijodiy maqsadlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Badiiy ramzlar, ijodkorning fikrlari va hissiyotlarini ifodalashda, shuningdek, o'quvchi va tomoshabinning e'tiborini jalb qilishda xizmat qiladi. Badiiy ramzlar badiiy asarlardagi konkret ob'ektlar, obrazlar yoki belgilardir. Ramzlar badiiy asarning ma'nosini kengaytirish imkonini beradi. Ramzlarning paydo bo'lishi ko'pincha ijodkorlarning tajribalari, his-tuyg'ulari va ijodiy faoliyati bilan bog'liq.

⁹ Чўлиева Н. Назар Эшонкул ҳикоялари бадийати ва услуби. Тўпламда: Ҳозирги адабий жараён масалалари (Назар Эшонкул таваллудининг 60 йиллигига бағишлаб ўтказилган халқаро илмий-назарий анжуман материаллари). Т.: Фан, 2022. 138-б.

¹⁰ Эшонкул Н. Мендан "мен"гача. Тошкент.: "Akademnashr". 2014. 114-бет.

Badiiy asarlarda qo'llanuvchi ramzlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Tabiat ramzlari:

A) o'simlik ramzlar;

B) hayvon ramzlari;

V) tabiat hodisalari bilan bog'liq ramzlar (kun, tun, bo'ron, do'l, shamol...);

G) tabiat unsurlari bilan bog'liq ramzlar (oy, quyosh, yulduz, tog'...);

D) yil fasllari bilan bog'liq (bahor, yoz, kuz, qish).

2. Narsa-predmet (detal) ramzlari. Narsa va predmetlar ramz sifatida ishlatilishi, ularning ma'nosi va simbolik ahamiyatini tushunish uchun muhimdir. *Kitob* – bilim, tafakkur va ma'rifat ramzi hisoblanadi. *Kalit* – maxfiylik, *tarozu* – adolat ramzi, *darvoza* – yangi imkoniyatlar, *do'ppi* – milliylik ramzi, *oyna* - ko'ngil, *may* –ishq ramzi va hokazo.

3. Makon va zamon (davr) ramzlari. Badiiy adabiyotda ramziylashgan shaharlar – asarlarda muayyan ma'no va simbolik ahamiyatga ega bo'lgan. Ularning ramziyligi ko'pincha ijodkorning dunyoqarashi, ijodiy konsepsiyasi va ijtimoiy-siyosiy konteksti bilan bog'liq. *Bag'dod* – ilm ma'rifat ramzi; *Parij* – muhabbat shahri; *Afina* – demokratik respublikasi yengilmas qudratining ramzi; *Cho'l, sahro* –sinov; *masjid* - diniy e'tiqod va birlashish ramzi; *bozor* – dunyo, ramzi.

Badiiy asarlarda zamon (vaqt)ning ramziylashishi – bu adabiyotda vaqtning simbolik ahamiyatini ifodalash uchun foydalaniladigan usul. Badiiy asarlarda zamonning ramziylashishi inson hayotining dinamik, tarixi va shaxsiy tajribalarini ifodalaydi. Zamonning ramzlashishi, asarning mazmunini kengaytirishi, personajlarning ichki kurashlarini va ijodkorning dunyoqarashini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, *To'fon davri* – sinovlar davri; *Renesans* – ma'rifat, yangi g'oyalar va ilmni izlash, "qayta tug'ilish"ni ifodalaydi.

Tabiatning tasviri va uning o'zgarishi zamonning ramziylashuvi uchun muhimdir. Masalan, *bahor* – yangilanish, *yo'z* – hayotning to'lig'onligi, *kuz* – o'tmishning yodgorligi, *qish* – o'tmishning xotirasi sifatida ramzlashtirilishi mumkin.

Badiiy asarlar nomida ham zamonning ramziylashishi kuzatiladi. Masalan, Lev Tolstoyning "Urush va tinchlik" asari nomida vaqt insonlar hayotidagi muhim voqealar bilan bog'liq ravishda ramziylik kasb etadi. Alisher Navoiyning "Xazoyin ul ma'noiy" kulliyoti tarkibidagi har bir devon nomiga ramziy ma'no yuklangan. Masalan, "G'aroyib us sig'ar" – "yoshlik g'aroyibatlari" ma'nosini bildiradi. Asar nomi inson umrining eng go'zal davriga ishora qiladi.

4. Ranglar va sonlar bilan bog'liq ramzlar: Ma'lumki, ranglar odamlarning his-tuyg'ulari, fikrlari va xatti-harakatlariga bevosita ta'sir qiladi. Ranglar ramziy fikrlar va ma'nolarni ifodalashi ham mumkin. Rang nomlari juda ko'p, lekin *qora*, *oq*, *qizil*, *yashil* va *sariq* ranglarning ramziylashishi boshqa ranglarga qaraganda faol.

Ranglarning tabiatda uchraydigan joylar ham har xil. Masalan, sut oq, osmon ko'k, qon qizil, o'simliklar odatda yashil va hokazo. "*Ranglar vositasidagi ramziylik qadim-qadimdan adabiyotimizda shakllangan bo'lib, keyinchalik mumtoz adabiyotimizga ham ko'chgan. Ya'ni, turli ranglar vositasida qahramonning o'y-kechinmalari, his-tuyg'ulari, orzu-maqsadlari, ijtimoiy*

jarayonlar, ma'naviy-mafkuraviy holatlar ochib berilgan".¹¹ **Ko'k** – tinchlik, umid va orzu; *oq rang* – *yorug'lik*, muqaddas; *qora rang* – yomonlik, motam ramzi. Qora rangning motam marosimiga aloqadorligini motamda qora kiyim kiyish bilan ham izohlash mumkin. Qora rangga yuklangan ramziylik ba'zan o'zgargani ham ko'rishimiz mumkin. Tasavvufshunos olim I. Haqqulov o'zining "Yana qora rang talqini haqida" nomli maqolasida qayd etishicha: "Ranglar va ularning ramziy ma'no-mohiyatidan bahs yuritish oson emas, albatta. Chunki ranglar u yoki bu xalqning uni qurshab olgan olam, ijtimoiy-madaniy hayot, urf-odat, marosim, adabiyot va san'atga doir qadimiy qarashlari bilangina emas, balki kosmogonik, mifologik, diniy-ilohiy tushuncha va tasavvurlari bilan ham bog'lanib ketgan. Shuningdek, odamlarning dunyoqarashi, yashash sharoitlari, diniy hayot yo'llarining o'zgarishi bilan ranglarga munosabat, ko'zlangan maqsadlar ham o'zgarib, ba'zan butunlay yangilanib borgan".¹² Olim mazkur maqolada ulug' shoir Alisher Navoiy ijodi misolida qora rangning ulug'lik va buyuklik ramzi sifatida qo'llanganligini misolar asosida izohlaydi.

Turkiy xalqlar tarixiga e'tibor bersak, ular turli obektlar, so'zlar yoki tushunchalarga qiymat – ma'no berib, ularni ramziylashtirganlar. Bunday ramziy qadriyatlarga ega bo'lgan ba'zi raqamlar matematika chegaralarini chiqib, falsafa, folklor, adabiyot va din sohalariga kirib borgan. Ayniqasa, "uch", "to'rt", "besh", "etti", "to'qqiz" va "qirq" raqamlarning ramziylashtirilishi barcha davrlarda kuzatiladi.

Xalq himoya qiluvchi kuch sifatida qabul qilgan raqamlarni muqaddas deb bilgan va ularni ramziylashtirgan. Raqamlarning ilohiylashtirilishi insonning olamga bo'lgan munosabatini shakllantiradi. Din, astronomiya va tabiatshunoslikda raqamlar olamning tuzilishi, paydo bo'lishi va rivojlanishini tushunishda muhim vosita hisoblanadi.

5. Asar qahramonlari hamda tarixiy shaxslar obrazining ramziylashishi. "Yusuf Xos Xojibning "Qutdg'u bilik" asari qahramonlariga ramziylik yuklangan. Kuntug'di – podsho – adolat; Oyto'ldi – vazir - boylik (qut); O'gdulmish – vazirning o'g'li – aql; O'zg'urmish – darvesh – qanoat ramzi.

Tarixiy shaxslarni ramziylashtirish, ularning faoliyati va ijtimoiy ahamiyatini simvolik ma'noda ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Bu shaxslar, o'z zamonidagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlarning ramzlari sifatida qabul qilinadi. Masalan, **Kleopatra**-jozibadorlik ramzi; Gomer – ulug'lilik ramzi.¹³ **Aleksandr Makedonskiy**–fath va hukmronlik ramzi; Arastu, Suqrot va Aflotun – donishmandlik ramzi.

6. Inson xatti –xarakatlari va a'zolari bilan bog'liq ramzlar.

Inson a'zolari, xatti-harakatlari va ishoralari bilan bog'liq ramzlar insonning ichki hissiyotlari, emotsiyalari va ijtimoiy aloqalarini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Bu ramzlar, badiiy asarlarda, psixologiya va sotsiologiyada insonning shaxsiy va ijtimoiy hayotini oydinlashtirishga yordam beradi. Shaxsning xulq-atvorida, ijtimoiy-madaniy hayotining har bir bosqichida biz ramzlarga duch kelamiz. Jumladan, *boshni egish* – hurmat; qo'lni yuqoriga

¹¹ Жумабоев О. Назар Эшонкул ҳикояларида рамзий тимсоллар. Тўпламда: Ҳозирги адабий жараён масалалари. –Т.: Фан, 2022. 169-172-б.

¹² Ҳаққулов И. Яна қора ранг талқини ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 2001. – №3. – Б.17-24.

¹³ Алимухаммедов А. Антик адабиёт тарихи. –Т.: Ўқитувчи, 1969 44-б

ko‘tarish – rozilik ramzi; *kulish* – xursandchilik ma’nosiga ishora qiluvchi hatti –harakatlar hisoblanadi.

Insonning ichki dunyosini, his-tuyg‘ularini va munosabatlari insonga tegishli uzvlar bilan ifodalanadi va ramziy ma’no kasb etadi. Masalan, *qalb* – his-tuyg‘u; *yurak* –muhabbat; *yuz* – Alloh tajalliygohi; “*lab* deganda pirning so‘zini, ilohiy fayzni; *qosh* deganda ilohiy olam bilan moddiy olam chegarasini; *bel* deganda komil inson xayolini; *ingichka bel* deganda komil inson xayolining nozikligini; *ko‘z* deganda komil insonning o‘zini nazarda tutish mavjud”.¹⁴

Ramzlarning yaratilish davriga ko‘ra ham tasnif qilish mumkin:

1. Tarixiy ramzlar
2. Zamonaviy ramzlar.

Ramzning paydo bo‘lishida ikkita tarixiy jarayonni qayd etish mumkin. Shu nuqtayi nazridan ramzlar yaratilgan davriga qarab tarixiy va zamonaviy ko‘rinishlarga ega. Masalan, eng qadimgi mifologik qarashlarda o‘q va yoy hukmronlik va mute‘lik ramzi sifatida talqin qilingan. O‘q va yoyga yuklangan bunday ramziylik o‘z kuchini yo‘qotgan.

Asalari ramzi dunyo madaniyati va adabiyotida qo‘llanuvchi faol ramz hisoblanadi va u qadim zamonlardan beri qo‘llanib kelinmoqdi. Qadimgi Misrdan Rim imperiyasigacha bo‘lgan ko‘plab madaniyatlarda asalarilar *qirollik va ilohiylik* bilan bog‘langan. Misrda asalarilar *shohlik kuchini va xudolar himoyasini* ifodalagan bo‘lsa, yunon mifologiyasida asalari *unumdorlik, mehnat va boylik* ramzi hisoblangan.

Asalari belgisi qadimgi Rimda ham tez-tez ishlatilgan. Rim imperatori Napoleon Bonapart aridan *hukmronlik ramzi* sifatida foydalangan va asalari uyasining naqshi qirollik zargarlik buyumlarida tez-tez paydo bo‘la boshlagan.

Keyinchalik asalarilar *sadoqat va mehnatsevarlik* ramziga aylangan. Asalari ramziga yuklangan ma’nolar san’atning boshqa turlarida o‘ziga xos ma’no tashigan. Masalan, zargarlik buyumlarida ari uyasining shaklidan foydalanish orqali o‘z foydalanuvchilariga *nafislik va go‘zallik tuyg‘usini* baxsh etgan. Shu bilan birga zargarlikda asalarichilik naqshini nozik, nafis ishlash orqali “tabiatga sadoqat”, “tabiatni muhofaza qilish”, “ekologik xabardorlik” ma’nosi yuklangan va bu ramzga sanalgan.¹⁵

Ramzlashtirish madaniyatlar, jamiyatlar va davrlar o‘rtasida farqlanadi. O‘tmishda qo‘llangan ramzlar, asosan, diniy ma’no kasb etgan. Zamonaviy davrda esa ramzlashtirish ko‘pincha ijtimoiy–siyosiy kontekstda o‘rganiladi. Ramzlashtirish tarixiy davr nuqtayi nazaridan o‘zgarib boradi.

Ramzlar, ularning ma’nosi va foydalanish sohasiga hamda kontekstdagi ko‘rinishlariga ko‘ra quyidagicha tasnif qilish mumkin.

Diniy ramzlar. Ramzlarning bunday ko‘rinishlari jamiyat a’zolarining e’tiqodlarni ifodalaydi. Masalan, “*Krest*” slavyan xalqlarida xristianlikka tegishli ramz, u ham xristianlik ta’limotini ifodalaydi. “*Lotos*” ramzi buddizmga ma’naviy rivojlanish va poklanishni ifodalaydi. Lotos gullari, ko‘pincha, diniy asarlarda ko‘rinadi. Islomda *oy va yulduz* ramzi, ko‘pincha, musulmonlar va ularning madaniyati bilan bog‘liq bo‘lgan simbolik ma’noga ega. Islom dinining

¹⁴ Комилов Н. Тасаввуф.147 –6.

¹⁵ https://minaliva.com/blog/ari-sembolunun-altin-takildaki-yeri-ve-onemi?srsId=AfmBOorKWD9sIIxIm0-M-c5tueRO_44don9iuowVWfzmgliryzySnJ4

tarixiy va madaniyatida Oy musulmonlar uchun kalendar va ibodat vaqtlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Islomiy kalendar oy asosida qurilgan, shundan kelib chiqib, oy ramzi ham diniy va madaniy ahamiyatga ega. 12 yulduz, ba'zi hollarda, Islomning tarixi va ulamolarining o'rnini belgilashda foydalaniladi. U, shuningdek, musulmonlarning jamiyatdagi birligi va hamjihatligini ifodalaydi

2. **Madaniy ramzlar:** Madaniyat va an'analarni ifodalaydi. Madaniy ramzlar – bu xalqning tarixini, an'analarini va qadriyatlarini ifodalovchi simvolik elementlardir. Ular odatda milliy bayramlar, marosimlar boshqa madaniy tadbirlar bilan bog'liq. Masalan, Ramazon, Navro'z, Davlat bayramlari. Bu ramzlar, xalqning tarixiy voqealari, milliy qadriyatlari va an'analarini ifodalaydi.

3. **Ijtimoiy-siyosiy ramzlar.** Istiqlool, erk va ozodlik konsepsiyalari, jamiyatdagi siyosiy harakatlar va ideologiyalarni ifodalovchi muhim ramzlardir. Davlat bayrog'i, millatning mustaqilligini va birligini ifodalaydi. Bayroqdagi ranglar milliy qadriyatlarni belgilaydi. Gimn – xalqning erki va ozodligini ifodalovchi qo'shiq.

Umuman olganda, ramzlar azaldan e'tiqod tizimining va shunga mos ravishda mifologiyaning bir qismi bo'lib, ular odamlarning o'zi yashayotgan muhit, dunyo, olam bilan aloqalarini o'rnatish uchun vosita sifatida xizmat qilgan. Ramzlar avloddan-avlodga o'tib, ba'zan ularning mazmunini o'zgargan. Ramzlardagi ma'nolar tarix, an'ana va e'tiqod bilan bog'liq bo'lgan. Ramz ma'nosining o'zgarishi yoki yo'qolishi ijtimoiy-siyosiy muhit tufayli sodir bo'lgan.